

“O‘zbektelekom” AKning Sog‘liqni saqlash va mehnat xavfsizligini ta‘minlash sohasidagi siyosati

“O‘zbektelekom” AK (keyingi o‘rinlarda - Kompaniya) O‘zbekiston Respublikasining barcha hududlarini o‘z tarmog‘i bilan qamrab olgan yetakchi Milliy telekommunikatsiya operatori bo‘lib, “UZTELECOM” savdo belgisi ostida mobil aloqa, internet, telefoniya, ma‘lumotlar uzatish va bulutli texnologiyalarni o‘z ichiga olgan keng qamrovli telekommunikatsiya xizmatlarini taqdim etadi.

Kompaniya zamonaviy texnologiyalarni, jumladan, beshinchi avlod (5G) mobil aloqa va optik tolali aloqa tarmoqlarini rivojlantirish orqali mamlakatning telekommunikatsiya infrastrukturasini rivojlanishiga katta hissa qo‘shib, telekommunikatsiya xizmatlari bozoridagi mavqeini mustahkamlab bormoqda. Barqaror rivojlanish tamoyillariga amal qilgan holda, Kompaniya barcha xodimlar, pudratchilar va manfaatdor tomonlar uchun xavfsiz va qulay mehnat sharoitlarini yaratadi hamda xavfsizlik tamoyillarini barcha ishlab chiqarish va boshqaruv jarayonlariga integratsiya qiladi.

Sog‘liqni saqlash va mehnat xavfsizligini ta‘minlash Kompaniyaning samarali va barqaror faoliyatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanib, strategik maqsadlariga erishish, xodimlar salomatligini saqlash va ish jarayonidagi jarohatlanishlar xavfini kamaytirishga xizmat qiladi.

Kompaniya o‘z oldiga qo‘yilgan maqsadlarga erishish uchun quyidagilarni amalga oshiradi:

xodimlarning xavfsizlik me‘yorlariga rioya qilish borasidagi xabardorligini oshirish va ularni mehnatni muhofaza qilish tizimini rivojlantirishga jalb qilish;

ishlarni bajarish jarayonlarini optimallashtirish, yuqori texnologik xavfsiz texnologiyalar ulushini oshirish orqali xodimlar salomatligiga ta‘sir qiluvchi xavflarni kamaytirish;

xodimlar va pudratchilar xavfsizligini ta‘minlash uchun monitoring va nazorat tizimlarini doimiy yaxshilash;

manfaatdor tomonlar bilan mustahkam aloqalar va ochiq muloqot o‘rnatish, ularning talablari va kutilmalarini inobatga olgan holda xavfsizlikni ta‘minlash bo‘yicha qo‘shma tadbirlar tashkil qilish.

Xodimlarning Sog‘liqni saqlash va mehnat xavfsizligini ta‘minlash tizimini yanada takomillashtirish maqsadida Kompaniya rahbariyati quyidagi majburiyatlarni o‘z zimmasiga oladi:

xodimlarning sog‘ligini saqlash va mehnat xavfsizligini ta‘minlash sohasida Kompaniya faoliyatini tartibga soluvchi qonunchilik va boshqa talablarga rioya qilish;

xavf-xatarlarni bartaraf etish, sog‘liqni saqlash va mehnat xavfsizligini ta‘minlash sohasidagi xavflarni kamaytirish;

barcha xodimlar, pudratchilar va manfaatdor tomonlar uchun ish jarayonidagi jarohatlanishlar va sog‘liqning yomonlashuvini oldini olish maqsadida sog‘lom va xavfsiz mehnat sharoitlarini yaratish;

ish jarayonida xodimlar sog‘lig‘ini muhofaza qilish va xavfsizligini ta‘minlash yuzasidan xavflarni aniqlash va bartaraf etish hamda ularni nazorat qilish;

Kompaniya xodimlarining mehnat muhofazasi va xavfsizligi qoidalariga rioya etish madaniyatini shakllantirish va rivojlantirishda, joylardagi mehnat jamoalari vakillarining faol ishtirokini va maslahatlashuvini ta‘minlash;

sog‘liqni saqlash va mehnat xavfsizligini ta‘minlash tizimini doimiy ravishda takomillashtirish, uning samaradorligini oshirish hamda ilg‘or jahon tajribalarni joriy etish.